

Subyekt roziligi – jismoniy shaxs/mijozning shaxsiy ma'lumotlari va o'zi haqidagi kredit hisobotini taqdim etishga roziligi

Toshkent sh.

Ushbu bilan Mijoz «TBC Bank» ATBga o'zi haqida kredit hisobotini olish hamda taraflardan biri Mijoz hisoblangan shartnomani tuzish va bajarish bo'yicha chora-tadbirlarni qabul qilish maqsadida shaxsiy ma'lumotlarining ishlanishi uchun rozilik beradi. Mijoz shuningdek, Bankning mobil ilovalaridan foydalanish, «TBC Bank» ATB bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish bo'yicha Bosh shartlari (bundan buyon BSh), bank hisobraqamlarini ochish, ularga xizmat ko'rsatish hamda boshqa bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish uchun Shartnoma/Ariza (bundan buyon matnda Shartnoma/Ariza) va bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etishga boshqa shartnomalar, ya'ni aynan «TBC Bank» ATB va Mijoz o'rtasida bank mahsulotlari va xizmatlari bo'yicha BSh va shartnomalarning joriy va kelgusi bajarilishini nazorat qilish va prognozlashtirish uchun, Mijozning moliyaviy va mulkiy ahvolini, Mijozning uchinchi shaxslar bilan BSh doirasida tuziladigan shartnomalar va BSh predmetiga taalluqli qismlari bo'yicha o'zaro munosabatlarini tekshirish hamda «TBC Bank» ATB tomonidan statistik va/yoki marketing tadqiqotlari, so'rovnomalari o'tkazish va/yoki Mijozni «TBC Bank» ATB va «TBC Bank» ATB hamkorlarining yangi mahsulotlari/xizmatlari to'g'risida xabardor qilish maqsadlari uchun Mijozning har qanday shaxsiy ma'lumotlarining (istalgan manbalardan yig'ish, saqlash, tizimlashtirish, o'zgartirish, qo'shimcha qo'shish, foydalanish, taqdim etish, tarqatish, uchinchi shaxslarga uzatish (shu jumladan, transchegaraviy uzatish), egasizlantirish va yo'q qilish), Mijozning maxsus shaxsiy ma'lumotlarini ham qo'shgan holda ("Shaxsiy ma'lumotlar") qayta ishlanishiga o'z roziligini beradi. Mijoz shuningdek, «TBC Bank» ATB tomonidan Mijozning shaxsiy ma'lumotlari, kredit hisoboti va Mijoz to'g'risidagi boshqa axborot asosida skoring baholash (shu jumladan avtomatlashtirilgan tarzda) o'tkazilishiga, bu baholash «TBC Bank» ATBning bir nechta bank mahsulotlari va xizmatlarini, jumladan, lekin shular bilan cheklanmagan holda, kredit mahsulotlari, to'lov kartalari, depozitlar va boshqa mahsulotlarni Mijozga bir vaqtning o'zida taqdim etish imkoniyati va shartlarini aniqlash maqsadida amalga oshirilishiga rozilik beradi. Mazkur kelishuv muddatsiz hisoblanadi va/yoki Mijoz tomonidan ixtiyoriy tarzda qaytarib olingunga qadar amal qiladi. Mijoz «TBC Bank» ATB tomonidan Mijozga tegishli har qanday ma'lumotlar (shu jumladan shaxsiy ma'lumotlarni ham) istalgan manbalardan istalgan miqdorlarda va istalgan vaqtda, «TBC Bank» ATBning ixtiyoriga binoan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari doirasida talab qilinishiga rozilik bildiradi. Ushbu ma'lumotlar qonuniy va /yoki shartnomaviy majburiyatlarni bajarilishi va axborotga ega bo'lish maqsadlarida tanishish, taqqoslash, tekshirish, tahlil qilish, saqlash, uzatish (O'zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida) maqsadlari uchun talab qilinadi